

QO‘QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.25.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

BOBAYEV ISROILJON ABDINABIYEVICH

**TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA AHOLI
FAROVONLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI**

08.00.15 – “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti”

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)
on economic sciences**

Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish
yo'nalishlari 4

Бобаев Исроилжон Абдинабиевич

Направления повышения благосостояния населения на основе развития
предпринимательской деятельности..... 29

Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich

Directions for improving public welfare through the development of entrepreneurial
activity 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 64

QO‘QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.25.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

BOBAYEV ISROILJON ABDINABIYEVICH

**TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA AHOLI
FAROVONLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI**

08.00.15 – “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti”

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3912 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://www.kokanduni.uz/uz>) va «Ziynet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Aripov Oybek Abdullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
professor

Rasmiy opponentlar:

Nosirov Ilxom Abbosovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
professor

Kurbonov Jasurbek Pozilovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Xalqaro Nordik Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon Universitetining iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi **PhD.03/2025.27.12.1.25.01** raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turkiston 28-a-uy. Tel.: +998735453333; +998735454444; +998735455555; e-mail: info@kokanduni.uz)

Dissertatsiya bilan Qo'qon universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turkiston 28 a-uy. Tel.: +998735453333; +998735454444; +998735455555.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil «___» _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).



Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raiisi, iqtisodiyot fanlari
doktori, dotsent

J.X. Kambarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot
fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

B.F. Xursanaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

E.A. Muminova

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasidan ma'lumki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o'sish, innovatsiyalarni joriy etish, aholi bandligi hamda farovonligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. "Kichik va o'rta biznes korxonalari aksariyat mamlakatlar iqtisodiyotining asosini tashkil qiladi, ular barcha biznesning qariyb 90 foizini va global bandlikning yarmidan ko'pini tashkil qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes korxonalari iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, samaradorlikni oshirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynaydi"¹. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra 2035-yilga borib rivojlanayotgan mamlakatlarning 1,2 mlrd. yosh aholisi mehnatga layoqatli yoshga yetadi. Global raqobatning kuchayishi, iqtisodiyotni raqamlashuvi, sun'iy intellektning rivojlanishi aholi bandligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa barqaror rivojlanish maqsadlari yo'nalishlarida amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatlarini aholi farovonligiga ta'sirini chuqur tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu jihatdan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish yo'nalishlarini ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonning bir qator nufuzli xalqaro moliya institutlari va tadqiqot markazlarida kambag'allikni qisqartirish, aholini, jumladan yoshlarni, ayollarni tadbirkorlikka yo'naltirish, tadbirkorlikni amalga oshirish, inklyuziv sharoitlarni yaratishga qaratilgan global miqyosdagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan xalqaro moliya institutlaridan hisoblangan Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Islom taraqqiyot banki (IDB) Yevropa rivojlanish va taraqqiyot banki (EDB) startap ekotizimini, aholi va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ular uchun tegishli biznesni qo'llab-quvvatlash, yoshlar bandligini ta'minlash, kambag'al va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillarini iqtisodiy faoliyatga keng jalb etish maqsadida ularni kasbiy tayyorgarligini oshirish, biznes yuritish ko'nikmalarini shakllantirish hamda boshlang'ich kapitalga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirmoqda. Xalqaro tashkilotlardan hisoblangan Birlashgan millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturi (UNDP), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), BMT ning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) kambag'allikni qisqartirish, inklyuziv rivojlanish va tadbirkorlikni rag'batlantirish, yoshlar bandligi, munosib mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirmoqda. Nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlaridan bo'lgan Brookings Institution, UNI-WIDER va OECD² kambag'allikni qisqartirish, oilaviy tadbirkorlik, inklyuziv tadbirkorlik, ijtimoiy tadbirkorlik yo'nalishlarida tadqiqotlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikda faollikni oshirish yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi

¹<https://www.worldbank.org/ext/en/topic/competitiveness/small-and-medium-enterprises-smes-finance>

²<https://www.kcl.ac.uk/news/progress-on-poverty-reduction-falling-short-of-global-goals>

Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-sonli “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining har bir toifasiga xos bo‘lgan asosiy maqsadli ko‘rsatkichlarga yuqori darajada erishish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, Kambag‘al oilalar reyestrda turgan ishsiz fuqarolarni ish bilan ta‘minlagan kichik biznes subyektlariga moliyaviy ko‘maklashish, “o‘zini o‘zi band qilgan shaxs – yakka tartibdagi tadbirkor – kichik biznes – o‘rta biznes – yirik korxona” zanjiri asosida tadbirkorlik subyektlarining yiriklashuvini rag‘batlantirish bo‘yicha mexanizmlar joriy qilishga doir eng dolzarb vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish, ushbu sohadagi muammolarni o‘rganish, tahlil etish va tavsiyalar ishlab chiqish choralarni ko‘rish, ishbilarmonlik muhitini yanada kengaytirish asosida tadbirkorlikni faollashtirish va bunda aholi farovonligini oshirish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligini yanada kengaytirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish, aholi farovonligini oshirishga ta‘sir etuvchi strategiyalarni tadqiq etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-sentyabrdagi PF-6314-sonli “Tadbirkorlik subyektlari uchun ma‘muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2025-yil 19-martdagi PF-50-sonli “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-sonli “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-312-sonli “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 15-noyabrdagi PQ-366-sonli “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-avgustdagi 504-sonli “Hududlarda “Mahallabay” ishlash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbaalarini ko‘paytirish orqali kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 20-yanvardagi 37-sonli “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari

A.Smit, J.B.Sey, D.Rikardo, A.Fon Xayek, Y.Shumpeter, F.X.Nayt, I.Fon Tyunen, J.M.Keyns, Dj.Xiks, P.Samuyelson, H.Hasmavati, V.Vinarti, J.Jumriani, V.Takala, T.Papaioannou kabi xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy va nazariy qarashlarida o‘z aksini topgan³.

Tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish yo‘nalishlarini tadqiq etishga munosib hissa qo‘shgan MDH davlatlari iqtisodchi olimlari qatoriga I.V.Lavrov, B.A.Rayzberg, F.I.Shamxalov, L.S.Murigina, E.Nikifirova, R.Polyakov, O.Polynkeyvich, O.Kuzmak, R.Kaminski va boshqalarning ilmiy-nazariy ishlarini kiritish mumkin⁴.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini A.O‘lmasov, S.G‘ulomov, Sh.Shodmonov, P.Abulqosimov, B.Navro‘zzoda, M.S.Qosimova, B.Hodiyev, K.Muftaydinov, A.Qulmatov, U.V.G‘ofurov, O.A.Aripov, R.A.Rashidov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁵.

³Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. –М.: Директ-Медиа, 2014. – Книги 1–3. – 442 с. – Режим доступа: по подписке. – URL: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=56082> (дата обращения: 28.09.2025). – ISBN 978-5-4458-8385-2. – Текст: электронный.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Директ-Медиа, 2014. – Книги 4–5. – 617 с. – Режим доступа: по подписке. – URL: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=56083> (дата обращения: 28.09.2025). – ISBN 978-5-4458-8386-9. – Текст: электронный.; Сэй Ж.-Б. Трактат по политической экономии. –М.: Дело, 2000. – 400 с.; Давид Рикардо: когда практика не расходится с теорией. // <https://spb.hse.ru/news/229955373.html>; Хайек Ф. Конкуренция как процедура открытия. // МЭМО, 1989. №12. –С. 9.; Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / пер. с нем. В.С. Автономова, М.С. Любского, А.Ю. Чепуренко и др. – М.: Эксмо, 2008. – 864 с. – (Антология экономической мысли); Найт Ф.Х. Прибыль. https://web.archive.org/web/20181010011556/http://www.seinstitute.ru/Files/v3-16-knight_p434-448.pdf; Тюнен И. Изолированное государство. –М.: Экономическая жизнь, 1926. Электрон ресурс: <https://drive.google.com/file/d/1DVGUSLF19WtOBVN4T3UVVfxnbseRPjFO/view?pli=1>; Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. –М.: Эксмо, 2007. – 960 с. – ISBN 978-5-699-20989-7.; <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitiye-ucheniya-o-predprinimatelstve> // Муригина Л.С. Развитие учения о предпринимательстве. 23 стр; Hasmawati H. et al. The effect of community-based entrepreneurship development programs on improving the economic welfare of communities in rural areas // Celebes Journal of Community Services. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 10-23; Takala V., Papaioannou T. Towards an entrepreneurial welfare state? A conceptual perspective // Review of Evolutionary Political Economy. – 2026. – Т. 7. – №. 1. – С. 8.

⁴Лавров И.В. Богатства как экономическая парадигма. <file:///C:/Users/user/Downloads/bogatstvo-kak-ekonomicheskaya-paradigma.pdf>; Райзберг Б.А. Основы бизнеса. Учебное пособие. –М.: Ось-89, 1996.; Шамхалов Ф.И. Государство и экономика: основы взаимодействия. Учебник для ВУЗов, –М.: НПО Изд. «Экономика», 2000.; Муригина Л.С. Развитие учения о предпринимательстве. 23 стр; Nikiforova E., Polyakov R. Analysis of the supporting tools of population entrepreneurial initiatives // AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2636. – №. 1. – С. 040013; Polinkevych, O., Kuzmak, O., Kamiński, R., & Kuzmak, O. (2025). Innovative Mechanisms for Regulating the Social Welfare of Refugees: Demographic Collapse or Sustainable Development. In Data-Centric Business and Applications: Modern Trends in Financial and Innovation Data Processes 2024 (pp. 81-103). Cham: Springer Nature Switzerland.

⁵O‘lmasov A, Sharifxo‘jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik. -T.: Mehnat, 1995. - 514 b.; G‘ulomov S.S. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. -T.: 1996, -320 b.; Shodmonov Sh., G‘ogurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, 2007. -137 b.; Abdullayeva Yo.Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. -T.: Mehnat, 2002. – 215 b.; Navro‘zzoda B.N. Marketing : Bozorni bilish mahorati. O‘quv metodik qo‘llanma. Buxoro, 2006.– 174 b.; Xodiyev B., Qosimova M. Tadbirkorlik va kichik biznes asoslari. - Toshkent, 2004. – 239 b.; Abulqosimov X. Xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy muammolari. -T.: ToshDTU, 1998. – 87 b.; Muftaydinov K., Yo‘doshev Q. Sharq iqtisodiy tamoyillari tarixi. - Toshkent. A.Qodiriy, 2002. – 132 b.; Qulmatov A.A. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. - Toshkent, 2004. – 120 b; Gafurov U. B. “Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish”. I.f.d. dissertatsiya. – T.: 2017. -42 b.; Aripov O.A. “O‘zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish”. –T. «Lesson Press» nashriyoti, 2021.; Rashidov R.A. “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish”. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2023-yil

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirishning mohiyati, ahamiyati va zarurligini nazariy asoslash;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirishning xorijiy tajribalarini o'rganish;

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyotini rivojlantirishdagi zamonaviy islohotlar tahlil etish;

sohalar kesimida tadbirkorlik faoliyatining o'sish sur'atlari va aholi farovonligining asosiy ko'rsatkichlari tahlilini amalga oshirish;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirishdagi muammolarni tahlil qilish;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida ishbilarmonlik muhitini yanada kengaytirishga doir ishlanmalar yaratish;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligini yanada kengaytirish yo'llari to'g'risida mulohaza yuritish;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirishga ta'sir etuvchi strategiyalarni takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti Namangan viloyatidagi tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari faoliyati hamda aholi farovonligini oshirishning amaliy jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlarni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning dialektik yondashuvi, mantiqiy fikrlash, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, guruhlash, ijtimoiy so'rov o'tkazish, ekonometrik va statistik tahlil, tizimli tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi omillar guruhlarining sezuvchanligini (elasticity) aniqlash orqali ularni tadbirkorlikni rivojlanishiga hudud va sohalar kesimida ta'sirini baholash modeli ishlab chiqilgan;

"Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni", "Investitsiyalar hajmi", "O'rtacha ish haqi", "Infratuzilma obyektlari soni" hamda "Soliq va imtiyozlar indeksi" ko'rsatkichlari orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni

o'zgarishini optimistik, bazaviy va pessimistik ssenariyalariga asoslangan 2026-2030-yillar uchun prognozi ishlab chiqilgan;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan strategiyalar "Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish", "Tadbirkorlik ta'limi va kasbiy ko'nikmalarni oshirish", "Raqamli texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish", "Maqsadli moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish" dasturlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

hududlarda davlat va xususiy sektor hamkorligida raqamlashtirish jarayonlari hamda ochiq ma'lumotlar siyosatini rivojlantirish, shuningdek, "Aqlli shahar" ("Smart City") loyihalarini faollashtirish orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan mexanizm asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi omillar guruhlarining sezuvchanligini aniqlash orqali ularni tadbirkorlikni rivojlanishiga hudud va sohalar kesimida ta'sirini baholash modelidan foydalanish tadbirkorlikni rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, davlat boshqaruv organlari tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari manzilli tashkil etish, resurslarni samarali taqsimlash va tadbirkorlik faoliyatlarini iqtisodiy natijadorligini oshirish imkoniyatlarini yaxshilab, hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda ularni farovonlik darajasini ortishiga xizmat qilgan;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni "Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish", "Tadbirkorlik ta'limi va kasbiy ko'nikmalarni oshirish", "Raqamli texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish", "Maqsadli moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish" dasturlari asosida takomillashtirilishi aholini, xususan, yoshlar, ayollar va ijtimoiy himoya reyestrtdagi fuqarolarni iqtisodiy faoliyatga kengroq jalb etish imkoniyatini yaxshilanishiga, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanish darajasini va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ortishiga, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqarishiga xizmat qilgan;

tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni o'zgarishini uch darajadagi ssenariyalariga asoslangan 2026-2030-yillar uchun prognozi kelgusi yillarda tadbirkorlik subyektlari sonining o'sish tendensiyalarini baholash va rivojlanish istiqbollarini aniqlash, turli ssenariyalar asosida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning kutilayotgan natijalarini oldindan baholash, investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash, tadbirkorlik subyektlari sonining o'sishi bilan bog'liq ravishda yangi ish o'rinlari va aholi daromadlarining kutilayotgan o'zgarishlarini, infratuzilma hamda soliq va u bo'yicha imtiyozlar siyosatining tadbirkorlikka ta'sirini hamda xatarlarni oldindan baholash, hududlar kesimida maqsadli choralar ishlab chiqish imkoniyatlari kengaygan;

davlat va xususiy sektor hamkorligida raqamlashtirish jarayonlari hamda ochiq ma'lumotlar siyosatini rivojlantirish, shuningdek, "Aqlli shahar" ("Smart City") loyihalarini faollashtirish orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan mexanizm davlat xizmatlaridan foydalanishning qulayligi va tezkorligini hamda, hududlarni

investitsion jozibadorligini ortishiga, yangi ish o‘rinlari va biznes imkoniyatlarini yaratilishiga, shahar infratuzilmasini boshqarish samaradorligini yaxshilash imkoniyatini yaratib, aholining yashash sifatini oshishi, davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni kuchayishi hamda hududlar o‘rtasidagi raqamlashuv tafovutlarni qisqarishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida foydalanilgan va tahlil etilgan axborotlar bazasining ishonchliligi ularni rasmiy manbalardan olinganligi, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi, O‘zbekiston savdo-sanoat Palatasi Namangan viloyati bo‘limining statistik ma’lumotlaridan olinganligi, iqtisodiy tahlillar nazariy-uslubiy jihatdan asoslanganligi, ilmiy natijalar milliy va xalqaro darajadagi anjumanlarda aprobat siyadan o‘tkazilganligi, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati olingan ilmiy xulosa va ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan Namangan viloyatida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amaliy jihatdan tatbiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni Namangan viloyatida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar, xususiyy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi omillar guruhlarining sezuvchanligini aniqlash orqali ularni tadbirkorlikni rivojlanishiga hudud va sohalar kesimida ta’sirini baholash modeli bo‘yicha taklif Namangan viloyati savdo-sanoat palatasi faoliyatida foydalanish uchun qabul qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 29-iyundagi № 01-06-31-68296-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikdan foydalanish natijasida tadbirkorlikni rivojlanishiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, davlat boshqaruv organlari tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini manzilli tashkil etish, resurslarni samarali taqsimlash va tadbirkorlik faoliyatlarini iqtisodiy natijadorligini oshirish imkoniyati yaxshilanib, hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda ularni farovonlik darajasini ortishiga xizmat qilgan;

“Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar soni”, “Investitsiyalar hajmi”, “O‘rtacha ish haqi”, “Infratuzilma obyektlari soni” hamda “Soliq va imtiyozlar indeksi” ko‘rsatkichlari orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar soni o‘zgarishini 2026-2030-yillar uchun mo‘ljallangan optimistik, bazaviy va pessimistik ssenariyalariga asoslangan prognoz bo‘yicha berilgan taklif Namangan viloyati savdo-sanoat palatasi faoliyatida foydalanish uchun qabul qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 29-iyundagi № 01-06-31-68296-sonli ma’lumotnomasi). Prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish

kelgusi yillarda tadbirkorlik subyektlari sonining o'sish tendensiyalarini baholash va rivojlanish istiqbollarini aniqlash, turli ssenariyalar asosida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning kutilayotgan natijalarini oldindan baholash, investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash, tadbirkorlik subyektlari sonining o'sishi bilan bog'liq ravishda yangi ish o'rinlari va aholi daromadlarining kutilayotgan o'zgarishlarini, infratuzilma hamda soliq va u bo'yicha imtiyozlar siyosatining tadbirkorlikka ta'sirini hamda xatarlarni oldindan baholash, hududlar kesimida maqsadli choralar ishlab chiqish imkoniyatlari kengaygan;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni "Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish", "Tadbirkorlik ta'limi va kasbiy ko'nikmalarni oshirish", "Raqamli texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish", "Maqsadli moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish" dasturlari asosida takomillashtirish bo'yicha berilgan taklif Namangan viloyati savdo-sanoat palatasi faoliyatida foydalanish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 29-iyundagi № 01-06-31-68296-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy tavsiyadan Namangan viloyati hokimligining Namangan viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish dasturlari loyihalarini tayyorlashda foydalanilgan. Strategiyani takomillashtirilishi aholini, xususan, yoshlar, ayollar va ijtimoiy himoya reyestrtdagi fuqarolarni iqtisodiy faoliyatga kengroq jalb etish imkoniyatini yaxshilanishiga, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanish darajasini va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ortishiga, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqarishiga xizmat qilgan;

hududlarda davlat va xususiy sektor hamkorligida raqamlashtirish jarayonlari hamda ochiq ma'lumotlar siyosatini rivojlantirish, shuningdek, "Aqlli shahar" ("Smart City") loyihalarini faollashtirish orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan mexanizm bo'yicha berilgan taklif Namangan viloyati savdo-sanoat palatasi faoliyatida foydalanish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 29-iyundagi № 01-06-31-68296-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur mexanizm davlat xizmatlaridan foydalanishning qulayligi va tezkorligini hamda, hududlarni investitsion jozibadorligini ortishiga, yangi ish o'rinlari va biznes imkoniyatlarini yaratilishiga, shahar infratuzilmasini boshqarish samaradorligini yaxshilash imkoniyatini yaratib, aholi yashash sifati oshishi, davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni kuchayishi hamda hududlar o'rtasidagi raqamlashuv tafovutlarni qisqarishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta ilmiy maqola,

shundan 2 tasi xorijiy va 6 tasi respublika jurnallarida, Respublika konferensiyalarida 2 ta tezis, Xalqaro konferensiyalarda 3 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda internet ma'lumotlaridan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish yo'nalishlarining nazariy-ilmiy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirishning mohiyati, ahamiyati va zarurligi atroflicha tahlil etilgan. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirishning xorijiy tajribalari nazariy jihatdan yoritilgan.

Bugungi kunda "Yangi O'zbekistonni halol mehnat qilib muvaffaqiyatga erishishni orzu qiladigan, tadbirkorlik orqali o'z va oilasi farovonligini ta'minlashga intiladigan, Vatani va xalqiga sidqidildan xizmat qilishni istaydigan barcha fuqarolar uchun keng imkoniyatlar mamlakatiga aylantirishimiz shart va zarur"⁶. Bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zaminida mamlakatda tadbirkorlikni jadal rivojlantirish zaruriyatini qo'llab-quvvatlashimiz lozim. Shu bois, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov boshchiligidagi, O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, o'zining iqtisodiy tizimini bozorga o'tkazishni "o'zbek modeli" tarkibidagi tamoyillar asosida amalga oshiradigan «o'ziga xos va mos yo'li»ni⁷ tanladi.


Tadbirkorlikni rivojlantirish tufayli aholi farovonligini oshirishni tadqiq etishda, (Dj. Keyns, Dj. Xiks, P. Samuelson kabi)⁸ iqtisodchi olimlarning tadbirkorlik muhitida raqobatni rivojlantirish, monopolistik faoliyatni cheklash, shuningdek, soliqlar, bojlar, foizlar kabi tartibga soluvchilar yordamida davlatning erkin tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvi zarurligi haqidagi xulosalari ham Keyns maktabi vakillari va uning izdoshlari tomonidan haqli ravishda e'tiborga molik.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, aholi farovonligini oshirish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, bu aholining hayot sifatini oshirish konsepsiyasida o'z ifodasini topgan. Ko'rib turganimizdek, hayot sifatini shakllantirish asosini, uning poydevorini ham shaxs darajasida, ham butun jamiyat darajasida shakllanadigan ehtiyojlar tashkil etadi.

⁶Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. –T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. 144 bet.

⁷ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 1992. – 78 b.

⁸ Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-ucheniya-o-predprinimatelstve> // Муригина Л.С. Развитие учения о предпринимательстве. 23 стр.



1-rasm. Aholi farovonligini oshirishda qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish maqsadida “O‘zbek modeli” asosida joriy etilgan mexanizm⁹

Mahalla hududini o‘rganish davomida fuqarolarni ish bilan ta‘minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va oilaviy biznesni yo‘lga qo‘yish uchun mavjud imkoniyatlar haqida tavsiyalar berib boriladi. “mahalla yettiligi” ishtirokchilarining har biri o‘z funksiyalariga ega bo‘lib, ular aholining qo‘shimcha daromad olishini ta‘minlaydigan uzviy bir tizimga aylangan. Bu esa bizning mentalitetimizga mos juda zarur tizim. Chunki mahallaning dunyoda muqobili yo‘q, faqatgina millatimizga xos bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqarish maskani hisoblanadi (1-rasmga qarang).

Olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, butun dunyoda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilgan va ilmiy asosda o‘rganilgan.

⁹ Muallif ishlanmasi.

Insondagi tadbirkorlik, sohibkorlik, zukkolik va ishbilarmonlik qobiliyatlari har zamonda e'zozlangan va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Ayni davrga kelib ham jahon hamjamiyatidagi ilmiy qarashlarda tadbirkorlik mavzusiga doir turli-tuman ilmiy mushohadalar mavjud bo'lsa-da, ushbu sohani qo'llab-quvvatlash natijalari aholining turmush darajasini oshirishga olib keladigan samaralar bilan nihoyalanmoqda. Shunday qilib, tadbirkorlik – bu yangilikni joriy etgan holda, muayyan mulkni o'zlashtirish asosida, foyda olish maqsadida, tavakkalchilikni o'z ichiga qamragan qonuniy faoliyat turi. Aholi tarkibida tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar qancha ko'p bo'lsa, uning tadbirkorona salohiyati shuncha oshib boradi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va iqtisodiyotning hozirgi holatiga ham davlat, ham mintaqaviy darajada javob beradigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish eng muhim vosita va mexanizmlar sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Ushbu tadqiqotda biz tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi turmush farovonligini oshirish konseptsiyasini amalga oshirish taomillarini tahlil qilishga to'xtaldik.

Fikrimizcha, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi farovonligi yaxshilanadi. Aholining turli tabaqa vakillarining ish haqi oshadi va qo'shimcha daromad manbalari paydo bo'ladi. Natijada aholining moliyaviy barqarorligi oshadi. Tadbirkorlikni rivojlanishi natijasida turli sohalardagi xizmatlar va mahsulotlar sifatining oshishi ro'y beradi. Bu esa aholi hayotining qulayligini ta'minlaydi. Sifatli turmush tarzi kengayib boradi.

Shunday qilib, agar «farovonlik» – mamlakat aholisi, davlat, ijtimoiy guruh yoki sinf, oila, shaxsning moddiy, moliyaviy, ijtimoiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishini anglatadigan tushuncha bo'lsa, unga erishishning eng dastlabki yo'li tadbirkorlikni keng rivojlanishini ta'minlashdir. Chunki aynan tadbirkorlikning rivojlanishi aholi farovonligini oshirishga turtki beradigan yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirib beradi. Tadbirkorlik faoliyati mahalliy resurslar, xomashyo va mehnatdan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Bu esa hududlarning rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi iqtisodiyotning muhim tarmog'i bo'lib, o'zaro bog'liqlikni yaratish orqali aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda tadbirkorlar muhim rol o'ynaydi. Chunki ular mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish orqali mehnat bozoriga ish o'rinlari yaratishadi. Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyati ko'plab ijobiy iqtisodiy ta'sirlar bilan birga, ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. U ijtimoiy, iqtisodiy va innovatsion jabhalarda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lib, jamiyatning umumiy darajasini yuqori bosqichga ko'tarishga yordam beradi. Shu sababli, tadqiqotlar ushbu yo'nalishda samarali strategiyalar va siyosatlarni ishlab chiqishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Birinchi bobda, shuningdek, Singapur, Janubiy Koreya, Germaniya va Finlyandiya tajribasi qiyosiy o'rganilgan. Tahlil natijalari ushbu davlatlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi uch ustunga tayanishini ko'rsatdi: ma'muriy tartib-taomillarning soddaligi va davlat xizmatlarining “yagona darcha” asosida ko'rsatilishi; kichik biznes uchun kafolat fondlari hamda imtiyozli moliyalashtirish

tizimi; ta'lim tizimida tadbirkorlik ko'nikmalarini izchil shakllantirish. Ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish tadbirkorlik orqali aholi farovonligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Dissertatsiya ishining “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholi farovonligiga ta'sirini baholash” deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyotini rivojlantirishdagi zamonaviy islohotlar, sohalar kesimida tadbirkorlik faoliyatining o'sish sur'atlari va aholi farovonligining asosiy ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirishdagi muammolarni o'rganilib, tahlil etilgan. Xususan, O'zbekistonda 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining¹⁰ qabul qilinishi tadbirkorlik rivoji uchun yangi davrni boshlab berdi. Hozirgi kunda esa amalga oshirilayotgan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida qabul qilingan Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi¹¹ tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishda yangi va yanada keng qamrovli maqsadlarni belgilab berdi.

Tahlillar asosida shuni qayd etish kerakki, 2017–2024-yillar davomida mamlakat iqtisodiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot 9 340,8 ming so'mdan 39 131,4 ming so'mga, ya'ni 4,2 martaga oshdi (yillik o'rtacha o'sish sur'ati 22,7 foiz); o'rtacha oylik nominal ish haqi esa 1 983,3 ming so'mdan 6 893,8 ming so'mga — 3,5 martaga ko'paydi (yillik o'rtacha 19,5 foiz) (1-jadval).

1-jadval

Mamlakat iqtisodiy sohalaridagi o'sish sur'atlarining aholi farovonligiga ta'sirini baholashning asosiy ko'rsatkichlari¹²

Asosiy ko'rsatkichlar	Birligi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2017-2024-o'zgarish
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YaIM)	ming. so'm	9340,8	12887,7	15764,9	19515,0	23500,9	27927,8	32740,6	39131,4	4,2 marta
Ishsizlik darajasi	foiz	5,8	9,3	9,0	10,5	9,6	8,9	6,8	4,2	-1,6 foiz.
O'rtacha oylik ish haqi	ming. so'm	1983,3	2547,5	3016,0	3258,7	3882,5	4742,7	5576,3	6893,8	3,5 marta
Inflyatsiya darajasi	foiz	9,5	17,5	14,5	11,1	9,9	12,3	8,8	9,8	+0,3 foiz
Tadbirkorlikda band aholi ulushi	foiz	75,0	75,1	76,2	74,5	74,5	73,9	74,0	75,3	+0,3 foiz

Mazkur ko'rsatkichlar nominal ifodada berilgani sababli, ularning aholi farovonligiga haqiqiy ta'sirini baholash uchun inflyatsiya omilini hisobga olish zarur. Tahlil qilinayotgan davrda yillik inflyatsiya 8,8–17,5 foiz oralig'ida saqlanib, 2018–2024-yillarda iste'mol narxlari jami 2,2 martaga oshgan. Shu asosda

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”. PF-4947-son. 7-fevral, 2017-yil.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”. PF-60-son. 28-yanvar, 2022-yil..

¹² Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblab tuzilgan.

deflyatsiyalanganda, aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot 1,9 martaga (yillik o'rtacha 9,6 foiz), real o'rtacha ish haqi esa 1,58 martaga (yillik o'rtacha 6,7 foiz) oshgani aniqlanadi. Demak, nominal ko'rsatkichlarning sezilarli o'sishi aholining real xarid qobiliyatini taxminan ikki baravar kamroq darajada oshirgan.

Bundan muhim xulosa kelib chiqadi: real ish haqining o'sishi (58 foiz) aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot o'sishidan (90 foiz) sezilarli darajada orqada qolmoqda — ularning nisbati 0,83 ni tashkil etadi. Bu holat iqtisodiy o'sish natijalari mehnat daromadlarida to'liq aks etmayotganini ko'rsatadi. Shu bois aholi farovonligini oshirishda mehnat unumdorligi o'sishini ish haqi o'sishi bilan muvozanatlashtirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ishsizlik darajasi 2017-yilda 5,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 4,2 foizga tushgan. Biroq ushbu ikki qiymatni bevosita taqqoslash metodologik jihatdan asosli emas: 2018-yildan boshlab ishsizlikni hisoblash Xalqaro mehnat tashkiloti metodikasiga o'tkazilgan. Shu sababli qiyosiy tahlil 2018-yildan boshlanishi lozim — bu holda ishsizlik 9,3 foizdan 4,2 foizga, ya'ni 5,1 f.p.ga qisqargan; 2020-yilda qayd etilgan eng yuqori ko'rsatkichga (10,5 foiz) nisbatan esa kamayish 6,3 f.p.ni tashkil etadi. Ishsizlikning bunday izchil pasayishi tadbirkorlik va kichik biznes sohasida yangi ish o'rinlari yaratilishi bilan bevosita bog'liq.

Tadbirkorlikda band aholi ulushi tahlil qilinayotgan davrda 75,0 foizdan 75,3 foizga o'zgargan, ya'ni atigi 0,3 f.p.ga oshgan (eng past qiymat — 2022-yilda 73,9 foiz, eng yuqorisi — 2019-yilda 76,2 foiz). Bu ko'rsatkich amalda barqaror saqlanib qolganini bildiradi. Bundan kelib chiqadiki, tahlil qilinayotgan davrda aholi farovonligining oshishi tadbirkorlikka jalb etilgan aholi sonining kengayishi hisobiga emas, balki mavjud tadbirkorlik subyektlarining unumdorligi va daromadliligi ortishi hisobiga ta'minlangan. Boshqacha aytganda, o'sish ekstensiv emas, intensiv xususiyat kasb etgan. Bu esa tadbirkorlik salohiyatining foydalanilmagan zaxirasi hali mavjudligini hamda aholini, xususan, yoshlar va ayollarni tadbirkorlikka kengroq jalb etish orqali farovonlikni oshirishning qo'shimcha imkoniyati borligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 1-jadval ma'lumotlari tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan aholi farovonligi o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi, biroq bu bog'liqlik avtomatik xususiyatga ega emas: iqtisodiy o'sishning farovonlikka aylanishi inflyatsiya darajasi, ish haqi siyosati hamda tadbirkorlikka jalb etilgan aholi ulushi bilan shartlangan. Davlat siyosati aynan shu uch yo'nalishda tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali aholi farovonligini oshirishda hal etuvchi ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlashdagi muammolarni aniqlash maqsadida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada Namangan (30,8 %), Nukus shahri (29,2 %), Farg'ona (13,1 %), Jizzax (10,8 %), Andijon (9,2 %), Toshkent shahri (2,3 %) va Samarqand (1,5 %) hududlaridan jami **130 nafar respondent** ishtirok etdi; ularning 64,1 foizi bevosita tadbirkorlar, 57,7 foizi oliy ma'lumotli. Respondentlarning 95,4 foizi tadbirkorlik aholi farovonligini oshirishda muhim rol o'ynashini tasdiqlagan. Aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar yuzasidan respondentlarning javoblari natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishlariga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar¹³

Omilar tavsifi	Respondentlar javoblari (Foiz, %)
Moliyaviy resurslar (boshlang'ich kapital) yetarli emas	41,5
Kreditlarga erishish qiyin (yuqori foizlar, garov talablari)	40,8
Tadbirkorlik bo'yicha bilim va ko'nikmalar yetishmasligi	40,8
Soliq yukining yuqoriligi yoki soliq tizimining murakkabligi	36,2
Korrupsiya va noshaffoflik mavjudligi	25,4
Bozordagi raqobatning kuchliligi va monopoliyalar borligi	17,7
Malakali ishchi kuchining yetishmasligi	16,9
Infratuzilmaning rivojlanmaganligi	16,2
Mulkchilik huquqi va tadbirkorlik huquqlarining himoyasi yetarli emasligi	13,8
Jamiyatda tadbirkorlikka nisbatan salbiy stereotiplar borligi	3,1

Savol ko'p javobli bo'lgani sababli foizlar yig'indisi 100 dan ortiq. Natijalar moliyaviy to'siqlar hamda bilim va ko'nikmalar yetishmasligi eng jiddiy cheklovlar ekanini ko'rsatdi. Bu esa moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash va tadbirkorlik ta'limini kuchaytirish zaruratini asoslaydi.

Ikkinchi bobda Namangan viloyati misolida tadbirkorlik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari - tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar soni, investitsiya hajmi, o'rtacha ish haqi, infratuzilma obyektlari soni hamda soliq va imtiyozlar indeksi — 2010–2025-yillar bo'yicha tahlil qilindi. Tahlilning maqsadi tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi omillarning tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sir sezuvchanligini (elastikligini) miqdoriy baholashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotning birinchi ilmiy yangiligi — tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi omillar guruhlarining sezuvchanligini (elasticity) aniqlash orqali ularning tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sirini baholash modeli quyidagicha asoslangan. Ko'rsatkichlarning o'lchov birliklari har xil bo'lgani sababli ular natural logarifmga o'tkazildi va quyidagi ko'p omilli regressiya modeli tuzildi:

$$LN(TB_i) = \beta_0 + \beta_1 * LN(Inv_i) + \beta_2 * LN(WH_i) + \beta_3 * LN(Infra_i) + \beta_4 * LN(Tax_i) + C_i \quad (1)$$

Bu yerda TB_i - tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni, Inv_i - investitsiya hajmi, WH_i - o'rtacha ish haqi, $Infra_i$ - infratuzilma obyektlari soni, Tax_i - soliq va imtiyozlar indeksi, C_i - tasodifiy xato. Logarifmik ko'rinishdagi modelda koeffitsiyentlar bevosita elastiklik sifatida talqin qilinadi, ya'ni omilning bir foizga o'zgarishi natijaviy ko'rsatkichni necha foizga o'zgartirishini bildiradi.

Dastlabki baholash omillar o'rtasida kuchli multikollinearlik mavjudligini ko'rsatdi: investitsiya hajmi, o'rtacha ish haqi va infratuzilma obyektlari soni o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari 0,992–0,998 oralig'ida bo'lib, ularning VIF qiymatlari belgilangan me'yordan ($VIF > 10$) sezilarli darajada oshdi. Shu sababli baholash natijalarining barqarorligini ta'minlash maqsadida o'rtacha ish haqi va infratuzilma obyektlari soni omillari modeldan chiqarib tashlandi.


Natijada yakuniy model quyidagi ko'rinishni oldi:

$$LN(TB_i) = 7.1363 + 0.4159 \times Ln(Inv_i) + 0.0265 \times Ln(Tax_i) \quad (2)$$

¹³ So'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.


Model natijalariga ko‘ra, tadbirkorlik faolligiga eng kuchli va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatuvchi omil — investitsiya hajmi: uning 1 foizga oshishi tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilar sonini o‘rtacha 0,416 foizga oshiradi. Soliq va imtiyozlar indeksining ta’siri musbat bo‘lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatsiz bo‘lib chiqdi ($p > 0,05$). Model yuqori aniqlikka ega ($R^2 = 0,999$), biroq qoldiqlarda musbat avtokorrelyatsiya shubhasi saqlanib qolgani (Darbin–Uotson mezon $dw = 1,210$) hisobga olinib, prognoz natijalari ehtiyotkorlik bilan talqin qilindi.

Tadqiqotning ikkinchi ilmiy yangiligi — (2)-tenglama asosida “Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar soni”, “Investitsiyalar hajmi”, “O‘rtacha ish haqi” “Infratuzilma obyektlari soni” hamda “Soliq va imtiyozlar indeksi” ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2026–2030-yillar uchun optimistik, bazaviy va pessimistik ssenariylarga asoslangan prognoz ishlab chiqilgan. Buning uchun, avvalo, omillarning dinamik qatorlari 2030-yilgacha prognoz qilindi.



2-rasm. Investitsiya hajmining (mlrd. so‘m) 2026-2030-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichi grafiği¹⁴

Grafikdan investitsiya hajmi ko‘rsatkichi optimistik holatda 2030-yilga kelib 9 718 mlrd. so‘mni tashkil qilishi, 2025-yilga nisbatan esa o‘shirish ko‘rsatkichi deyarli 62 foizni tashkil etishi prognoz qilindi. (2-rasm).



3-rasm. Soliq va imtiyozlar indeksining 2026-2030-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichi grafiği¹⁵

Bazaviy ssenariyda, ya’ni hozirgi shart-sharoitlar o‘zgarishsiz qolganida, ko‘rsatkich kamayuvchi trendni hosil qiladi: 2030-yilga kelib u 0,43 ni tashkil etib, 2025-yilga nisbatan deyarli 25 foizga pasayadi. Optimistik ssenariyda ko‘rsatkich 8,6 foizga o‘shirib 0,63 ga, pessimistik ssenariyda esa 0,22 ga teng bo‘lishi prognoz

¹⁴ Ekonometrik tahlillar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹⁵ Ekonometrik tahlillar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

qilingan. Bazaviy ssenariydagi pasayishga asosiy sabab — ko‘rsatkichning 2016-yildan 2017-yilga o‘tishda keskin o‘zgarishi (0,77 dan 0,41 ga) hisoblanadi (3-rasm).

3-jadval

Namangan viloyatida tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilar soni LN(TB_i) ko‘rsatkichining 2026-2030-yillar uchun prognoz jadvali¹⁶

Yil	Optimistik LN(TB _i)	Bazaviy LN(TB _i)	Pessimistik LN(TB _i)	Optimistik soni	Bazaviy soni	Pessimistik soni
2025	10.765	10.765	10.765	47,325	47,325	47,325
2026	10.852	10.802	10.762	~51,700	~49,300	~47,100
2027	10.941	10.84	10.78	~56,300	~51,400	~47,900
2028	11.031	10.878	10.798	~61,300	~53,600	~48,700
2029	11.122	10.917	10.816	~66,700	~55,900	~49,500
2030	11.214	10.956	10.834	~72,600	~58,300	~50,300

Bazaviy ssenariyda investitsiya hajmi yillik o‘rtacha 4,1 foizga o‘sishi, soliq va imtiyozlar indeksi esa mo‘tadil pasayishi taxmin qilindi. Bu holatda 2030-yilga kelib Namangan viloyatida tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilar soni 2025-yilga nisbatan 23,3 foizga ko‘payib, 58,3 ming nafarni tashkil etishi kutilmoqda. Hozirgi iqtisodiy siyosat va shart-sharoitlar saqlanib qolgan taqdirda aynan mazkur ssenariy eng real natija hisoblanadi (3-jadval).

Dissertatsiya ishining “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholi farovonligini barqarorlashtirish yo‘nalishlarini takomillashtirish” deb nomlangan uchinchi bobida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida ishbilarmonlik muhitini yanada kengaytirish, aholi farovonligini oshirish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligini yanada kengaytirish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirishga ta’sir etuvchi strategiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ishlanmalar yaratilgan.

4-jadval

O‘zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar modelining tizimli strukturasi¹⁷

№	Yo‘nalish nomi	Asosiy islohotlar	Kutilgan samara
1	Sud tizimi	Tijorat sudlari, e-arbitration	Huquqiy ishonch
2	Regulyatorlar	RIA, tekshiruvlar shaffofligi	Davlat-xususiy muloqot
3	Soliq-moliya	Soliq imtiyozlari, kafolat fondlari	Moliyaviy kirish
4	Raqobat	Antimonopol nazorat	Teng imkoniyatlar
5	Ta’lim	Tadbirkorlik kursi, grantlar	Inson kapitali
6	Hududlar	Hududiy kengashlar, KPI	Joylardagi rivoj
7	Davlat-xususiy sheriklik	Tanlov va himoya tizimi	Sarmoya jalbi

¹⁶ Ekonometrik tahlillar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.


¹⁷ Muallif tomonidan ijtimoiy tadqiqotlar asosida tuzilgan.

Uchinchi bobda, avvalo, mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yanada rivojlantirish tendensiyalarini faollashtirish maqsadida xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar modeli ishlab chiqilgan. Model 7 ta asosiy blokdan iborat bo‘lib, har biri muayyan islohot yo‘nalishi, amaliy choralar va kutilayotgan samarani qamrab oladi (4-jadval).

Ushbu model asosida amalga oshiriladigan islohotlar tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy ishonch, moliyaviy resurslarga erkin kirish va teng raqobat sharoitlarini yaratib, hududlarda yangi ish o‘rinlari ochilishiga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, tadqiqotlarimiz asosida o‘rganilgan muammolar aholi tomonidan yangi biznesni boshlash va uni kengaytirish jarayonida jiddiy to‘siqlar tug‘diradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun hukumat tomonidan tegishli chora-tadbirlar qo‘llanilmoqda. Biroq, ularni natijadorligini oshirish maqsadida bir qator strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarni amaliyotga tatbiq etish zarur. Shu bois, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi strategiyalarni takomillashtirish maqsadga muvofiq (4-rasm):

Tadqiqotning uchinchi ilmiy yangiligi — tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan strategiyalar maxsus dasturlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan. Ushbu strategiyalarning umumiy tarkibi quyidagicha:



4-rasm. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirishga ta‘sir etuvchi strategiyalar¹⁸

Maqsadli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish – mikrokreditlar, imtiyozli qarzlar va venchur kapitali tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, biznes-angellar¹⁹ (ya’ni, maslahatchi-sarmoyachi yoki startaplarga sarmoya qo‘yadigan shaxs) va investitsiya jamg‘armalarini jalb qilish orqali yangi

¹⁸ Muallif ishlanmasi.


¹⁹ Biznes-angel – bu startaplar yoki yangi tashkil etilgan kompaniyalarga investitsiya qiladigan, odatda tajribali shaxs. Ular pul bilan yordam berishadi va ko‘pincha biznesni rivojlantirish uchun maslahat ham berishadi. Biznes-angellar odatda kompaniyaning aksiyalarini oladilar va kompaniya o‘sgandan keyin foyda olishni maqsad qiladilar.

tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish aholi daromadlarining o‘shishiga xizmat qiladi. Buning uchun shaffof va barqaror muhitni kengaytirish kerak. Bu, avvalo, mulk huquqini himoya qilish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirishni o‘z ichiga oladi.

Tadbirkorlik ta‘limi va kasbiy ko‘nikmalarni oshirish – aholining tadbirkorlik salohiyatini yuksaltirish maqsadida kasbiy tayyorgarlik, malaka oshirish kurslari va tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish zarur. Maktab va oliy ta‘lim muassasalarida tadbirkorlik asoslarini o‘qitish, amaliy treninglar, master-klasslar va inkubator dasturlarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, yoshlar va ayollar o‘rtasida biznes savodxonligini oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish zarur. Bu orqali inson kapitali kuchayib, uzoq muddatli farovonlikka zamin yaratiladi. Bunday yondashuvlar fuqarolarning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Xususiy sektor uchun qulay muhit yaratish va infratuzilmalar rivojini qo‘llab-quvvatlash – soliq imtiyozlari, litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish va korrupsiyaga qarshi qat‘iy choralarni uzluksiz ko‘rib borish zarur. Tadbirkorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, logistika, raqamli infratuzilma va moliyaviy xizmatlarga kengroq erishish imkonini ta‘minlash orqali faoliyat samaradorligini oshirish mumkin.

Infratuzilma elementlariga banklar, fond birjalari, reklama va kadrlar agentliklari, sug‘urta, brokerlik, konsalting va audit kompaniyalari, lizing kompaniyalari, ijarachilar, xavfsizlik organlari, transport va temir yo‘llar singari ko‘plab tashkilotlardan iborat elementlar kiradi. Ko‘rinib turibdiki, har bir sohada o‘zining mutaxassisligi asosida ishlaydigan kadrlar zarur bo‘ladi (5-rasmga qarang).



5-rasm. Infratuzilma elementlari faoliyati asosida ishbilarmonlik muhitining qulaylashuvi²⁰

²⁰ Muallif ishlanmasi.

Hududiy biznes salohiyatini rivojlantirish va hududlarni ixtisoslashtirish – masalan, qishloq joylarida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, har bir hududdagi iqtisodiy ixtisoslashuvga asoslangan klasterlar tashkil etishga e’tibor qaratish zarur. Har bir hududning iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda, ularda raqobatbardosh soha va mahsulotlar asosida tadbirkorlikni rivojlantirish aholining mahalliy imkoniyatlar orqali farovonlashuviga olib keladi.

Ijtimoiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish – ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash aholining eng kam ta’minlangan qatlamlari uchun ham barqaror daromad manbalari yaratishi mumkin. Demak, ijtimoiy tadbirkorlik – bu jamiyatda ijobiy o‘zgarishlar qilishga qaratilgan biznes faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. (4-rasmga qarang)

Yuqorida keltirilgan strategiyalar orasidan ilmiy yangilik sifatida to‘rtta dastur ajratilgan: “Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish”, “Tadbirkorlik ta’limi va kasbiy ko‘nikmalarni oshirish”, “Raqamli texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantirish” hamda “Maqsadli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish”. Ushbu dasturlar aholini, xususan, yoshlar, ayollar va ijtimoiy himoya reyestrtdagi fuqarolarni iqtisodiy faoliyatga kengroq jalb etish, raqamli iqtisodiyot hamda moliyaviy resurslardan foydalanish darajasini oshirish va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning to‘rtinchi ilmiy yangiligi — hududlarda davlat va xususiy sektor hamkorligida raqamlashtirish jarayonlari hamda ochiq ma’lumotlar siyosatini rivojlantirish, shuningdek, “Aqlli shahar” (“Smart City”) loyihalarini faollashtirish orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan mexanizm asoslangan. Mexanizm to‘rt yo‘nalishni qamrab oladi: ochiq ma’lumotlar portali orqali davlat axborotining shaffofligini ta’minlash; davlat-xususiy sheriklik asosida “Aqlli shahar” loyihalarini amalga oshirish; ijtimoiy investitsiyalar va ijtimoiy obligatsiyalar (Social Impact Bonds) institutini joriy etish; davlat xaridlarida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish.

Ayni davrda raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borishi bilan bog‘liq davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish bo‘yicha bir qator takliflar ishlab chiqildi.

Xususan, davlat va xususiy sektorning hamkorligini yanada kengaytirish uchun bir qator innovatsion yondashuvlar va muhim islohotlarni amalga oshirish zarur. Bu ikki sektor o‘rtasidagi aloqalarni chuqurlashtirish orqali nafaqat iqtisodiy o‘sishni, balki aholining hayotiy sifatini ham keskin yaxshilash mumkin.

1. Raqamlashtirish va ochiq ma’lumotlar siyosatini rivojlantirish. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashning eng samarali yo‘li – ma’lumotlar almashinuvini ochiq va shaffof qilishdir. Bunda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

Ochiq ma’lumotlar portali: Davlat organlarining statistika, byudjet ijrosi, davlat xaridlari va boshqa muhim ma’lumotlarini yagona, ochiq portalda e’lon qilish. Bu tadbirkorlarga bozordagi bo‘shliqlarni aniqlash, yangi biznes g‘oyalarni shakllantirish va davlat loyihalarida ishtirok etish imkoniyatini beradi.

“Aqlli shahar” loyiholari: Davlat-xususiy sheriklik asosida transport, energetika, kommunal xizmatlar va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish. Bu loyihalar shahar infratuzilmasini boshqarishni optimallashtiradi va yangi

xizmatlar bozorini yaratadi. Infratuzilmani rivojlantirishga innovatsion yondashuv zamonaviy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishga olib keladi. Masalan, xususiy kompaniyalar bilan hamkorlikda aqlli svetoforlar, energiya sarfini boshqarish tizimlari yoki chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini yaratish mumkin. "Aqlli shahar" ("Smart City") loyihalari aholi farovonligiga turli sohalarida ijobiy ta'sir ko'rsatadi (4-rasm). "Aqlli shahar" ("Smart City") loyihalarining aholi farovonligiga ta'siriga oid asosiy jihatlar²¹. Ushbu loyihalar raqamli texnologiyalar, AI (Artificial Intelligence) Sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili orqali shahar infratuzilmasini samarali boshqarishni maqsad qiladi.

Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasida "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasi va 2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan. Ushbu loyihaning ijrosida raqamlashtirish va ochiq ma'lumotlar siyosatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Aqlli shahar" ("Smart city") loyihalari aholi uchun qulay, xavfsiz, ekologik va samarali muhit yaratishni ko'zlaydi. Bu esa o'z navbatida aholi farovonligi, turmush sifati va jamiyat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Ijtimoiy investitsiyalar va ijtimoiy obligatsiyalar. Hamkorlikning yana bir istiqbolli yo'nalishi ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan moliyaviy vositalarni joriy etishdir.

Ijtimoiy obligatsiyalar (Social Impact Bonds): Bu mexanizm orqali xususiy investorlar ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarga (masalan, ta'lim sifatini oshirish, jinoyatchilikni kamaytirish yoki aholi salomatligini yaxshilash) sarmoya kiritadi. Agar loyiha ko'zlangan natijalarga erishsa, davlat investorlarga sarmoyasini foizlar bilan qaytaradi. Bu davlat uchun xatarlarni kamaytiradi va xususiy sektorni ijtimoiy loyihalarga jalb qilish uchun yangi imkoniyat yaratadi.

3. Klaster va ekotizimlarni rivojlantirish. Samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun tarmoqlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish lozim.

– Sanoat klasterlarini yaratish: Davlat va xususiy kompaniyalar hamkorligida bir-biriga bog'liq korxonalar (masalan, to'qimachilik, turizm, avtomobilsozlik) ni bir hududda jamlash. Bu klasterlar ilmiy-tadqiqot institutlari, ta'lim muassasalari va moliyaviy tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Bunday klasterlar tajriba almashinuvini tezlashtiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

Biznes-inkubatorlar va akseleratorlar: Davlat mulkidagi bino va infratuzilmadan foydalangan holda xususiy sektor vakillari (venchur fondlar, biznes-trenerlar) bilan birgalikda yosh startaplar uchun inkubatorlar va akseleratorlar tashkil etish. Bu dasturlar startaplarni biznes yuritish, mablag' jalb qilish va bozorga chiqish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.


4. Davlat xaridlarida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish. Davlat xaridlari tizimi xususiy sektor uchun katta imkoniyatlar yaratadi, biroq uning shaffofligini oshirish zarur.

²¹ Muallif ishlanmasi.

“Aqlli shahar” loyihalariga quyidagilar kiradi: (6-rasm)

Yashash sharoitlarining yaxshilanishi Smart texnologiyalar orqali kommunal xizmatlar (issiqlik, suv, elektr energiyasini) ni tejamkor va uzluksiz ta’minlash imkoni yaratiladi. Havo sifati, ifloslanish darajasi va atrof-muhit monitoringi orqali sog‘lom muhit ta’minlanadi.

Transport va harakat samardorligi Intellektual svetoforlar, smart yo‘l belgilari va transport monitoringi orqali tirbandliklar kamayadi. Jamoat transporti yaxshilanadi va harakat jadvali aniqlashadi, vaqt esa tejaladi.



6-rasm. “Aqlli shahar” (“Smart City”) loyihalarining aholi farovonligiga ta’siri mexanizmi²²

Xavfsizlikning oshishi Videokuzatuv tizimlari, aqlli datchiklar va tezkor xabar tizimlari orqali jinoyatchilik darajasi pasayishi mumkin. Tabiiy ofatlar yoki favqulodda holatlarda tezkor xabar va evakuatsiya tizimlari faollashadi.

Elektron hukumat va xizmatlar Davlat xizmatlar onlayn murojaat qilish imkoni (ID-karta, ruxsatnomalar, soliqlar va h.k.) byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi. Aholi va davlat o‘rtasidagi aloqa tezlashadi va shaffoflik oshadi.

²² Muallif ishlanmasi.

Barqaror rivojlanish atrof-muhit muhofazasi. Smart energiya tizimlari (masalan, quyosh panellari, energiya tejovchi chiroqlar) orqali energiya iste'moli kamayadi. Chiqindilarni qayta ishlash va nazorat qilish tizimlari orqali ekologik barqarorlik ta'minlanadi.

Sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida yaxshilanishlar. Intellektual svetofoqlar, smart yo'l belgilar va transport monitoringi orqali tirbandliklar kamayadi. Jamoat transporti yaxshilanadi va harakat jadvali aniqlashadi, vaqt tejaladi.

Davlat xaridlarida xususiy sektori ishtirokini kengaytirish - davlat mablag'laridan samarali foydalanish, raqobatni oshirish va tovar yoki xizmat sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Agar bu sohada xususiy sektor faolroq jalb etilsa, bir qator ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlarida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali:

- byudjet mablag'lari samarali sarflanadi;
- xizmatlar sifatli bo'ladi;
- mahalliy biznes rivojlanadi;
- davlat boshqaruvida ochiqlik va javobgarlik ta'minlanadi.

XULOSA

1. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va iqtisodiyotning hozirgi holatiga ham davlat, ham mintaqaviy darajada javob beradigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish eng muhim vosita va mexanizmlar sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Chunki bugungi kunda aholining farovonligini oshirish ko'p jihatdan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga bog'liq bo'lib qolmoqda.

2. G'arb va sharq iqtisodchilarining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish kabi ilmiy yondashuvlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishga erishish mumkin. Chunki tadbirkorlik aholi ehtiyojini qondirishga bo'lgan sa'y-harakatlarni o'zida mujassamlaydi. Bunday faollik esa jamiyat taraqqiyotida juda zarur hisoblanadi.

3. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi asosida aholi farovonligini oshirishga turli yo'llar bilan ta'sir ko'rsatish mumkin. Bu yo'nalishlar orasida asosiy ahamiyatga ega bo'lgani – iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangidan-yangi ish o'rinlarini yaratish, yangi texnologiya va innovatsiyalarni qo'llash, qo'shimcha daromad manbalarini yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdir.

4. Ayni davrda, Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznesni yanada rivojlantirish borasida amaliy tadbirlar samaradorligini oshirish va aholi farovonligini oshirishda bir qator rivojlangan (Singapur, Janubiy Koreya, Germaniya, Finlyandiya kabi) davlatlarning ilg'or tajribalaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu xorijiy tajribalardan foydalanish O'zbekiston iqtisodiyotidagi tadbirkorlikni rivojlantirish va bu asosda aholi farovonligini ta'minlashga erishish imkoniyatlarini yaratish yo'lida manfaatlidir.

5. Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'lida olib borilgan iqtisodiy islohotlar Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari amalga oshirilib, "Inson qadri uchun" tamoyili asosida

tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholining turmush farovonligini oshirish, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga ko'proq e'tibor qaratdi. Ushbu maqsadi – strategiyalarning tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, ularga moliyaviy va huquqiy yordam berish, shuningdek, biznes yuritish shaffofligini ta'minlashdan iborat bo'ldi.

6. Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan iqtisodiy muhitda tadbirkorlik faoliyatini yuritishda bir qator muammolar yuzaga kelgan. Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish, bozor infratuzilmalarining raqobatini shakllantirish, tadbirkorlikning ayniqsa sanoat sohasida innovatsiyalarni qo'llash, eksport munosabatlarida juz'iy muammolar mavjud. Shuningdek, ijtimoiy so'rovnoma o'tkazilganda, soliq yukining yuqoriligi yoki soliq tizimining murakkabligi (36,2%), korrupsiya va noshaffoflik mavjudligi (25,4%), bozordagi raqobatning kuchliligi va monopoliyalar borligi (17,7%), malakali ishchi kuchi yetishmasligi (16,9%), infratuzilmaning rivojlanmaganligi (16,2%), mulkchilik huquqi va tadbirkorlik huquqlarining himoyasi yetarli emasligi (13,8%), jamiyatda tadbirkorlikka nisbatan salbiy stereotiplar borligi (3,1%) kabi muammolar borligi o'rganildi. Aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishlariga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar turkumlash asosida o'rganildi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy, huquqiy, institutsional va ta'lim sohalarida islohotlarni amalga oshirish zarur deb hisoblanadi.

7. Namangan viloyatining hududiy iqtisodiyotida tadbirkorlik va kichik biznes alohida o'ringa ega bo'lgan soha hisoblanadi. So'nggi yillarda tadbirkorlik va kichik biznesning viloyat yalpi hududiy mahsulotidagi salmog'i yildan-yilga oshib, aholi farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

8. Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yanada rivojlantirish tendensiyalarini faollashtirish uchun Yangi O'zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirish uchun tavsiya etilgan institutsional islohotlar modeli ishlab chiqildi. Bu model 7 ta asosiy blokka bo'lingan bo'lib, har biri muayyan islohot yo'nalishi va amaliy choralarni o'z ichiga oladi.

9. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish uchun Yangi O'zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligini yanada kengaytirish maqsadida "davlat-xususiy sheriklik" (PPP – Public-private partnership) modelini qo'llash maqsadga muvofiq. Ushbu model orqali infratuzilma loyihalari, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari, sanoat va agrar sohalarda samarali hamkorlik ko'zga tashlanadi deb hisoblaymiz.

10. Raqamlashtirish va ochiq ma'lumotlar siyosatini rivojlantirish asosida elektron munosabatlarni keng tatbiq etish, shuningdek, aholi farovonligini oshirishda «Aqlli shahar» ya'ni «Smart city» texnologiyalarini joriy etish va aholi uchun qulay, xavfsiz, ekologik va samarali muhit yaratish jamiyat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.I.25.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КОКАНДСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

БОБАЕВ ИСРОИЛЖОН АБДИНАБИЕВИЧ

**НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ
НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

08.00.15 – “Экономика предпринимательства и малого бизнеса”

АВТОРЕФЕРАТ

Диссертация доктора философии (PhD) по ЭКОНОМИЧЕСКИМ НАУКАМ

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2024.1.PhD/Iqt3912.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном техническом университете

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Ученого совета (<https://www.kokanduni.uz/uz>) и на информационно-образовательном портале "Ziynet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Арипов Ойбек Абдуллаевич
доктор экономических наук (DSc),
профессор

Официальные оппоненты:

Носиров Илхом Аббосович
доктор экономических наук (DSc),
профессор

Курбонов Жасурбек Нозилович
доктор философии (PhD) по
экономическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Международный Юридический
Университет

Защита диссертации состоится в ____ « ____ » ____ 2026 года на заседании научного совета PhD.03/2025.27.12.1.25.01 по присуждению учёных степеней при Кокандском университете. (Адрес: 150700, г. Коканд, Туркестан, дом 28-а). Тел.: +998735453333; +998735454444, +998735455555, e-mail: info@kokanduni.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Кокандского университета (зарегистрирована под № ____). Адрес: 150700, г. Коканд, Туркестан, 28а. Тел.: +998735453333, +998735454444, +998735455555.

Автореферат диссертации разослан « ____ » ____ 2026 года.
(Протокола реестра № ____ от " ____ " ____ 2026 года)



Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор экономических наук, доцент
Камбаров Ж.Х.

Учёный секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор философии по
экономическим наукам (PhD),
доцент

Хурсаналиев Б.Ф.
Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению учёных степеней,
доктор экономических наук,
профессор

Муминова Э.А.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Как показывает опыт развитых стран мира, малый бизнес и частное предпринимательство являются одним из основных факторов обеспечения экономического роста, внедрения инноваций, повышения занятости населения и уровня его благосостояния. Предприятия малого и среднего бизнеса составляют основу экономики большинства стран, на них приходится около 90 % всего бизнеса и более половины глобальной занятости¹. Предприятия малого и среднего бизнеса в развивающихся странах играют важную роль в диверсификации экономики, повышении эффективности и сокращении бедности. Согласно данным Всемирного банка, к 2035 году около 1,2 млрд молодых людей в развивающихся странах достигнут трудоспособного возраста. Усиление глобальной конкуренции, цифровизация экономики, развитие искусственного интеллекта напрямую влияют на занятость населения. Это обуславливает необходимость глубокого исследования влияния предпринимательской деятельности, осуществляемой в рамках направлений достижения Целей устойчивого развития, на благосостояние населения. В этой связи научно обоснованное совершенствование направлений повышения благосостояния населения на основе развития предпринимательской деятельности приобретает особую научно-практическую значимость и актуальность.

В ряде авторитетных международных финансовых институтов и исследовательских центров мира проводятся исследования глобального масштаба, направленные на сокращение бедности, вовлечение населения, в том числе молодежи и женщин, в предпринимательскую деятельность, развитие предпринимательства и создание инклюзивных условий для его осуществления. В частности, такие международные финансовые институты, как Всемирный банк (WB), Международная финансовая корпорация (IFC), Азиатский банк развития (ADB), Исламский банк развития (IDB) и Европейский банк реконструкции и развития (EBRD) реализуют программы, направленные на развитие стартап-экосистемы, поддержку предпринимательства населения и женщин, содействие развитию бизнеса, обеспечение занятости молодежи, а также более широкое вовлечение малоимущих и социально уязвимых групп населения в экономическую деятельность. Эти программы предусматривают повышение профессиональной подготовки граждан, формирование навыков ведения бизнеса и удовлетворение потребностей в стартовом капитале. Международные организации, такие как Программа развития Организации Объединенных Наций (UNDP), Международная организация труда (ILO) и Организация Объединенных Наций по промышленному развитию (UNIDO), реализуют программы, направленные на сокращение бедности, инклюзивное развитие, стимулирование предпринимательства, обеспечение занятости молодежи и создание условий для достойного труда. Авторитетные научно-

¹<https://www.worldbank.org/ext/en/topic/competitiveness/small-and-medium-enterprises-smes-finance>

исследовательские центры, такие как Институт Брукингса (Brookings Institution), UNU-WIDER (Всемирный институт развития экономики Университета ООН) и ОЭСР² (Организация экономического сотрудничества и развития), проводят исследования в таких областях, как сокращение бедности, семейное, инклюзивное и социальное предпринимательство.

В экономике Узбекистана особое внимание уделяется дальнейшему улучшению деловой среды, поддержке субъектов предпринимательства и повышению предпринимательской активности. В частности, в Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-50 от 19 марта 2025 года „О мерах по повышению роли малого и среднего бизнеса в экономике“ определены наиболее актуальные задачи, предусматривающие разработку рекомендаций по достижению высоких результатов по ключевым целевым показателям, характерным для каждой категории субъектов предпринимательства и малого бизнеса, оказание финансовой поддержки субъектам малого бизнеса, обеспечивающим занятость безработных граждан, включённых в Реестр малообеспеченных семей, а также внедрение механизмов стимулирования укрупнения субъектов предпринимательства на основе цепочки: «самозанятое лицо – индивидуальный предприниматель – малый бизнес – средний бизнес – крупное предприятие». Эффективная реализация указанных задач требует проведения исследований, направленных на повышение благосостояния населения посредством развития предпринимательства, изучение и анализ существующих проблем в данной сфере, разработку практических рекомендаций по их решению, активизацию предпринимательской деятельности за счёт дальнейшего расширения деловой среды, а также выработку предложений по укреплению сотрудничества государства и частного сектора в целях повышения уровня благосостояния населения. Это, в свою очередь, обуславливает необходимость научного исследования стратегий, оказывающих влияние на повышение благосостояния населения. Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-6314 от 15 сентября 2021 года «О дальнейших мерах по снижению административной и налоговой нагрузки для субъектов предпринимательства, совершенствованию системы защиты законных интересов бизнеса», № УП-50 от 19 марта 2025 года «О мерах по повышению роли малого и среднего бизнеса в экономике», № УП-21 от 16 февраля 2026 года «О дополнительных мерах по последовательному продолжению и выведению на новый этап реформ в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года», Постановлениях № ПП-306 от 14 сентября 2023 года «О мерах по финансовой и институциональной поддержке развития малого бизнеса», № ПП-312 от 7 сентября 2024 года «О мерах по совершенствованию Комплексной программы непрерывной поддержки малого бизнеса», № ПП-366 от 15 ноября 2023 года «О дополнительных мерах по широкому привлечению населения к малому и среднему бизнесу»,

² <https://www.kcl.ac.uk/news/progress-on-poverty-reduction-falling-short-of-global-goals>

Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 504 от 9 августа 2021 года «О мерах по сокращению бедности путем развития семейного предпринимательства на основе системы работы «махаллабай» в регионах и увеличения постоянных источников дохода населения», № 37 от 20 января 2024 года «О мерах по реализации Комплексной программы непрерывной поддержки малого бизнеса», а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики. Настоящее диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Теоретико-методологические основы повышения благосостояния населения на базе развития предпринимательства в зарубежных странах нашли свое отражение в научных и теоретических трудах таких зарубежных ученых-экономистов, как А. Смит, Ж. Б. Сэй, Д. Рикардо, Ф. фон Хайек, Й. Шумпетер, Ф. Х. Найт, И. фон Тюнен, Дж. М. Кейнс, Дж. Хикс, П. Самуэльсон, Х. Хасмавати, В. Винарти, Ж. Жумриани, В. Такала, Т. Папаиоанну³.

В число ученых-экономистов стран СНГ, внесших достойный вклад в исследование направлений повышения благосостояния населения на основе развития предпринимательства, можно включить научно-теоретические труды таких авторов, как И. В. Лавров, Б. А. Райзберг, Ф. И. Шамхалов, Л. С. Мурыгина, Е. Никифорова, Р. Поляков, О. Полынкевич, О. Кузмак, Р. Камински и другие⁴.

³ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. –М.: Директ-Медиа, 2014. – Книги 1–3. – 442 с. – Режим доступа: по подписке. – URL: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=56082> (дата обращения: 28.09.2025). – ISBN 978-5-4458-8385-2. – Текст: электронный.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Директ-Медиа, 2014. – Книги 4–5. – 617 с. – Режим доступа: по подписке. – URL: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=56083> (дата обращения: 28.09.2025). – ISBN 978-5-4458-8386-9. – Текст: электронный.; Сэй Ж.-Б. Трактат по политической экономии. –М.: Дело, 2000. – 400 с.; Давид Рикардо: когда практика не расходится с теорией. // <https://spb.hse.ru/news/229955373.html>; Хайек Ф. Конкуренция как процедура открытия. // МЭМО, 1989. №12. –С. 9.; Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / пер. с нем. В.С. Автономова, М.С. Любского, А.Ю. Чепуренко и др. – М.: Эксмо, 2008. – 864 с. – (Антология экономической мысли); Найт Ф.Х. Прибыль. https://web.archive.org/web/20181010011556/http://www.seinstitute.ru/Files/v3-16-knight_p434-448.pdf; Тюнен И. Изолированное государство. –М.: Экономическая жизнь, 1926. Электрон ресурс: <https://drive.google.com/file/d/1DVGUSLF19WT0bVN4T3UVVfxnbseRPjFO/view?pli=1>; Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. –М.: Эксмо, 2007. – 960 с. – ISBN 978-5-699-20989-7.; <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitiye-ucheniya-o-predprinimatelstve> // Мурыгина Л.С. Развитие учения о предпринимательстве. 23 стр; Hasmawati H. et al. The effect of community-based entrepreneurship development programs on improving the economic welfare of communities in rural areas //Celebes Journal of Community Services. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 10-23; Takala V., Papaioannou T. Towards an entrepreneurial welfare state? A conceptual perspective //Review of Evolutionary Political Economy. – 2026. – Т. 7. – №. 1. – С. 8.

⁴ Лавров И.В. Богатства как экономическая парадигма. <file:///C:/Users/user/Downloads/bogatstvo-kak-ekonomicheskaya-paradigma.pdf>; Райзберг Б.А. Основы бизнеса. Учебное пособие. –М.: Ось-89, 1996.; Шамхалов Ф.И. Государство и экономика: основы взаимодействия. Учебник для ВУЗов, –М.: НПО Изд. «Экономика», 2000.; Мурыгина Л.С. Развитие учения о предпринимательстве. 23 стр; Nikiforova E., Polyakov R. Analysis of the supporting tools of population entrepreneurial initiatives //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2636. – №. 1. – С. 040013; Polinkevych, O., Kuzmak, O., Kamiński, R., & Kuzmak, O.

Теоретические и практические аспекты развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане исследованы в научных трудах А.Улмасова, С.Гулямова, Ш.Шодмонова, А.Юсупова, П.Абулкосимова, Б.Навроззода, М.С.Косимовой, Б.Ходиева, К.Муфтайдинова, А.Кулматова, У.В.Гофурова, О.А.Арипова, Р.А.Рашидова и других учёных⁵.

Связь темы диссертации научно-исследовательских работами высшего образовательного учреждения, в котором выполняется диссертация. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с планом научно-исследовательских работ Наманганского государственного технического университета в рамках прикладного исследовательского проекта на тему "Совершенствование механизмов развития предпринимательства и малого бизнеса."

Целью исследования является разработка научных предложений и практических рекомендаций по направлениям повышения благосостояния населения на основе развития предпринимательской деятельности.

Задачи исследования:

теоретически обосновать сущность, значение и необходимость повышения благосостояния населения на основе развития предпринимательской деятельности;

исследовать факторы, влияющие на развитие предпринимательской деятельности и повышение благосостояния населения;

изучить зарубежный опыт повышения благосостояния населения на основе развития предпринимательской деятельности;

проанализировать современные реформы в сфере развития предпринимательства и малого бизнеса в условиях Нового Узбекистана;

провести анализ темпов роста предпринимательской деятельности и основных показателей благосостояния населения в отраслевом разрезе;

выявить ключевые проблемы повышения благосостояния населения на основе развития предпринимательской деятельности;

разработать направления дальнейшего расширения деловой среды в целях активизации предпринимательской деятельности;

(2025). Innovative Mechanisms for Regulating the Social Welfare of Refugees: Demographic Collapse or Sustainable Development. In Data-Centric Business and Applications: Modern Trends in Financial and Innovation Data Processes 2024 (pp. 81-103). Cham: Springer Nature Switzerland.

⁵ O'Imasov A, Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: Mehnat, 1995. - 514 b.; G'ulomov S.S. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. -T.: 1996, -320 b.; Shodmonov Sh., G'ogurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, 2007. -137 b.; Abdullayeva Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. -T.: Mehnat, 2002. - 215 b.; Navro'zzoda B.N. Marketing : Bozorni bilish mahorati. O'quv metodik qo'llanma. Buxoro, 2006.- 174 b.; Xodiyev B., Qosimova M. Tadbirkorlik va kichik biznes asoslari. - Toshkent, 2004. - 239 b.; Abulqosimov X. Xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy muammolari. -T.: ToshDTU, 1998. - 87 b.; Muftaydinov K., Yo'doshev Q. Sharq iqtisodiy tamoyillari tarixi. - Toshkent. A.Qodiriy, 2002. - 132 b.; Qulmatov A.A. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. - Toshkent, 2004. - 120 b; Gafurov U. B. "Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish": I.f.d. dissertatsiya. - T.: 2017. -42 b.; Aripov O.A. "O'zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish". -T. «Lesson Press» nashriyoti, 2021.; Rashidov R.A. "Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2023-yil

обосновать направления развития государственно-частного партнёрства как инструмента повышения предпринимательской активности и благосостояния населения;

разработать научно обоснованные рекомендации по совершенствованию стратегий, направленных на повышение благосостояния населения на основе развития предпринимательской деятельности.

Объектом исследования являются деятельность субъектов предпринимательства и малого бизнеса в Наманганской области, а также практические процессы повышения благосостояния населения.

Предметом исследования являются экономические отношения, возникающие в процессе повышения благосостояния населения на основе развития предпринимательской деятельности.

Методы исследования. В диссертации использованы такие методы, как диалектический подход к научному познанию, логическое мышление, анализ и синтез, сравнительный анализ, группировка, проведение социологического опроса, эконометрический и статистический анализ, системный анализ и другие методы.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

